



FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI (DINIY MATNLAR MISOLIDA)

Salohiddinova Nilufar Tursunpo'latovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8430336>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 02-October 2023 yil

Ma'qullandi: 06- October 2023 yil

Nashr qilindi: 11- October 2023 yil

KEY WORDS

Istiqlol tufayli o'zbek xalqi o'zining diniy-ma'naviy merosini o'rganish baxtiga muyassar bo'ldi

ABSTRACT

Diniy iboralarning leksik-semantik tahlili orqali shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'zbek tili leksik tizimida diniy iboralarga xoslangan alohida til birliklari mavjud. Ular aynan diniy sohaning lingvistik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi, shu sohada faol qo'llaniladi. Undagi tushunchalarning atamasi va ifodasi sifatida o'zbekcha matnlardan, o'zbekcha tafakkur olamidanda mustahkam o'rin oladi va buning oqibatida o'zbek tili lug'atlarida ham qayd etiladi. Shu bois ham tadqiqotimizda o'zbek tili boyligi sifatida e'tirof etilgan va diniy lug'atlar tarkibida o'rinlashgan leksik frazeologik birliklarni tahlilga tortdik.

Dunyo tilshunosligida diniy atamalar leksikasi va frazeologiyasi diniy leksik birliklarining lug'aviy-ma'naviy, uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish, ularni mavzuiy jihatdan tasnif qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Har qanday tildagi diniy so'zlar ming yilliklar davomida lingvistik tadqiqot obyektiga aylantirilishi natijasida ko'plab ilmiy kuzatilishlar yuzaga kelgan.

Istiqlol tufayli o'zbek xalqi o'zining diniy-ma'naviy merosini o'rganish baxtiga muyassar bo'ldi. Mustaqillik yillarida uni har jihatdan o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, til aspektida o'rganishga ham qulay sharoit paydo bo'ldi. Prezidentimizning BMT Bosh Assambleysi 72-sessiyasi minbaridan turib "Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz"¹ deya fikr bildirishi orqali ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizning ajralmas qismi bo'lgan islom dinining mazmun-mohiyatini xalqimiz ongiga chuqur singdirish masalasini dunyo miqyosiga olib chiqdi. Shu nuqtayi nazardan, o'zbekcha diniy atamalarni vazifaviy uslublar doirasida o'rganish, ularning lingvistik va ekstralingvistik jihatlarini tadqiq etish va, nihoyat, ularning o'zbek tili funksional-stilistik tizimida tutgan o'rnini belgilash tilshunoslarimizda dolzarb vazifaga aylandi.

Yer yuzasidagi barcha tillar qatori o'zbek tilida ham qadim-qadimdan misqollab to'plangan, o'ziga xos shakllangan lug'at jamg'armasida maxsus diniy leksik-semantik qatlam mavjud. Ushbu qatlamning asosini diniy tushunchalar, diniy atamalar va ularning qonun-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so'zlangan nutqidan

qoidalari tashkil qiladi, ular leksik-semantik tizimining barcha xususiyatlariga ega bo'lgan holda umumtil sistemasining ajralmas qismi sanaladi. Bundan betakror tizimning jamiyat taraqqiyoti, axloqiy-odobiy normalari, ma'yorlarini shakllantirish hayot hamda turmush tarzini tartibga solishdagi ahamiyati, shu bilan birga, millat madaniy va ma'naviy dunyosining ajralmas qismi ekanligi isbot talab qilinmaydigan haqiqatdir. Darvoqe, ushbu qatlam leksikasi jamiyatning alohida chegaralangan bir guruhi uchun xizmat qiladigan hodisa bo'lmasdan, balki ushbu tilda gaplashuvchilarning umummulki, ya'ni umumxalq boyligidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Asosiy tayanch nazariy manbalar sifatida "Diniy atamalar va iboralar" ommabop qisqacha izohli lug'at (Muxtorxon eshon Umarxo'jayev, 2016), Sh.Mahmaraimovanning "O'zbek tili teomorfik metoforalarining qisqacha konseptual lug'ati" dan foydalandik. Maqolada ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Diniy iboralarning leksik-semantik tahlili orqali shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'zbek tili leksik tizimida diniy iboralarga xoslangan alohida til birliklari mavjud. Ular aynan diniy sohaning lingvistik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi, shu sohada faol qo'llaniladi. Undagi tushunchalarning atamasi va ifodasi sifatida o'zbekcha matnlardan, o'zbekcha tafakkur olamidan mustahkam o'rin oladi va buning oqibatida o'zbek tili lug'atlarida ham qayd etiladi. Shu bois ham tadqiqotimizda o'zbek tili boyligi sifatida e'tirof etilgan va diniy lug'atlar tarkibida o'rinlashgan leksik frazeologik birliklarni tahlilga tortdik. Natijada shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'zbek tili leksik tizimida diniy tushuncha va tasavvurlarni ifodalovchi alohida birliklar mavjud va ular o'zbekcha so'zlarda o'zining birlamchi – diniy ma'nolari bilan ishtirok etadi.

Bilamizki, tilimiz frazeologik fondining ma'lum qismini diniy tushunchalar bilan bog'liq elementlar tashkil etadi. Ular tilimizga tayyor holda kirib kelgan emas, balki milliy tushunchalar va lingvokulturologik mahsulot sifatida keng doirada keyinchalik paydo bo'lgan. Arabcha-forscha hamda turkiycha diniy onomastik leksika ushbu tipdagi teofrazeologik birliklarning vujudga kelishiga asos bo'lgan. Ushbu tipdagi diniy frazeologik birliklar semantikasi Alloh va uning qudrati, insonni komillik va islomiy turmush tarziga da'vat qiluvchi niyatlar va duolar bilan bog'liq rang-barangdir. Teofrazeologizmlar, birinchidan milliy tafakkur imkoniyatlarining kengligini, diniy e'tiqodning mustahkamlik darajasini ko'rsatsa, ikkinchidan, mental xususiyatlarni o'zida aks ettirib, o'zbek tilining tasviriy imkoniyatlari naqadar katta ekanligini namoyish etadi.

Bunday frazemalarning boshqa iboralardan farqli jihati, o'ziga xosligini alohida ta'kidlash lozim. Birinchidan, aksariyat diniy iboralar arab, fors tillaridan o'zlashgan leksik birliklar asosida yuzaga kelgan bo'lib, hozirgi zamon o'zbek tili iboralar zaxirasida to'laqonli birlik sifatida ham og'zaki, ham yozma nutq jarayonida qo'llanib kelinadi. Masalan, *sohibi karomat-karomat egasi; farzi ayn-har kim o'zi ado etishi kerak bo'lgan amallar (namoz, ro'za, zakot)*²; *farzi kifoya-mualliflar jamoasidan qandaydir adadi ma'lum amalni bajarib qo'ysa,*

² Амонтурдиева Ш. Ўзбекча диний матнларнинг функционал-стилистик тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа (ПхД) доктори...дисс.автореферат – Самарқанд, 2020. 87-бет.

*boshqalari soqit bo'ladi, masalan, janoza namozi; nomai a'mol; shaytoni lain; faxri koinot*³. Bu yerda oddiy leksik ma'no haqida gap ketmaydi, balki ularning biriga ko'chirilgan va yaratgan frazeologik ma'nolar haqida gap boradi.

Diniy tushunchalar, xalqning dunyoqarashi orqali yuzaga kelgan frazemalarni og'zaki, yozma nutqda qo'llanishiga ko'ra ikki guruhga ajratish lozim. Birinchi guruhga diniy tushunchalar asosida umumxalq tilida, og'zaki nutqda barcha tomonidan qo'llanib kelinadigan iboralar. Masalan, *qiyomat qarz; shukr qilmoq; dargohida qabul qilsin; shak keltirmoq; shakkoklik qilmoq; xo'ja ko'rsinga; oq fotiha; qo'lini halollamoq; xatna qildirmoq; jonini jabborga berib ishlamoq; jahannamga ravona qilmoq; Xizrni yo'qlasa ham bo'larkan; fotiha o'qimoq; qa'da qarimas; to'rt tarafing qibla; Luqmoni hakim; luqmayi halol*. Bu kabi turg'un so'z birikmalarining kelib chiqishi-etimologiyasi va ular ifodalotgan tuyg'u-tushunchalar shu qadar rang-barangki, bizning fikrimizcha, ularning lisoniy xususiyatlari, milliy madaniy ahamiyati kelgusida alohida ilmiy tadqiqot ob'ekti bo'lishi mumkin.

Ushbu o'rinda diniy iboralarga xos bo'lmagan xususiyatlar to'g'risida ham gapirib o'tish joiz. Shu paytga qadar *alifni kaltak demoq; tarki dunyo qilmoq; pirga qo'l bermoq; eti sizniki suyagi bizniki; madrasa tuprog'ini yalagan; ho'kizning qulog'iga qo'biz chertmoq; eshakka yosin o'qimoq* singari diniy so'z va iboralarning ko'pchiligi tilimizning lug'at fonida eskirgan so'zlar sifatida o'rin olgan edi⁴. Ammo mustaqillik tufayli ularning ayrimlari yana faol nutqqa qaytdi.

Ikkinchidan, xalq tilida yuzaga kelgan diniy mazmundagi iboralar ham mavjud. Masalan, *Makkaga imom bo'lgur, Xizr bilan do'st bo'lgur*. Ushbu iborali birliklar o'zbek onalarining farzandlariga qarata aytadigan ijobiy qarg'ishi (olqishi) hisoblanadi. Bundan tashqari, *Xudo ursin, Xudodan topgur, Xudoga soldim, jin ursin, Xudo olsin, Xudo xayringni bersin* kabi salbiy va ijobiy ma'nodagi diniy atamalar bilan bog'liq iboralarni ham kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, nutqimizda diniy mazmundagi *shaytonning etagidan tutmoq, bu dunyongni deb u dunyongdan kechma, farishtalar omin desin* kabi iboralar ham keng qo'llanib kelinadi. Ta'kidlash kerakki, xalqimiz nutqida islom diniga xos bo'lgan islomiy so'z va iboralar juda faol. Ammo ularni nutqimizda qo'llaganimiz bilan hammasini ham ma'nosini bilmaymiz. Ularni bilish, tahlil qilish uchun bizda din haqida, musulmon olami haqida tushunchalar bo'lishi lozim. Dinga oid atama va iboralarga ko'zimiz tushganida ularni ma'nolarini bilish uchun esa, albatta, lug'atlarga murojaat qilamiz.

XULOSA

O'zbek tili leksikasida vujudga kelgan bu lingvistik qatlam namunalari so'zlashuv va badiiy-publitsistik uslubdagi lug'atlarda shu darajada beqiyos o'xshatish vositalariga aylanganki, ular yordamida shakllangan o'xshatish, epitet, metafora, mubolag'a singari ifoda tasvir vositalarining alohida bir guruhi yuzaga kelgan. Diniy atamalar va iboralar yer yuzida asrlar davomida umrguzaronlik qilgan insoniyatni hamisha yaxshilikka, ezgulikka, ahillikka, do'st-u birodarlikka da'vat qilgan, insoniy fazilatlarini ulug'lashga qaratilganligi bilan e'tiborga molik. Shu nuqtai nazardan, diniy atama va iboralarning til xususiyatlari va lug'aviy tarkibini yanada

³ Мухторхон Эшон Умархўжаев. Диний атама ва иборалар. Қисқача омма бо пизоҳли луғат. – Тошкент: Ғофур Ғулом нашри ёти, 2016. 146-бет.

⁴ Бозорбоев К. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Самарқанд. 2000. 7-бет.

kengroq o'rganish uning o'ziga xos uslubiy xoslanishini lingvistik muammo sifatida tadqiq etish hamda bundan dunyo ilmiy jamoatchiligini xabardor etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Амонтурдиева Ш. Ўзбекча диний матнларнинг функционал-стилистик тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа (ПхД) доктори...дисс.автореферат – Самарқанд, 2020.
2. Омонтурдиев Ж, Омонтурдиев А. Ўзбек тили диний-маърифий атамаларининг изоҳли луғати. – Т., 2012.
3. Омонтурдиев Ж. Маърифатнома. –Тошкент: «Мумтоз сўз», 2013, -168 б.
4. Каримов С. Ўзбек тилининг диний услуби ҳақида баъзи мулоҳазалар // Истиқлол йиллари: миллий-диний кадриятларнинг халққа қайтиши. Ўзбекистон Республикаси Имом ал-Бухорий халқаро жамғармасининг ЎЗР. Мустақиллигининг 10 йиллигига бағишланган илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2001.
5. Маҳмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Тошкент: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018, 100-б.
6. Бозорбоев К. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол. фан. номзод. дисс... абтореф. – Самарқанд, 2000.

INNOVATIVE
ACADEMY